

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”**

KAFEDRASI

***Cho‘liyer Dahrmon Erkinovich***

Maktab o‘quvchilarida “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratishga o‘rgatish metodikasi  
mavzusidagi

5140700- “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi **M.X.Nurmatov**

Navoiy-2011

**MUNDARIJA**

KIRISH.....	3
I-BOB. TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYALAR USTIDA ISHLASH .....	8
1.1. Tasviriy san'atni o`qitishda mavzuli kompozisiya ishlash mashg`ulotlarining ahamiyati .....	12
1.2. Tasviriy san'at mashg`ulotlarining vazifalari .....	16
II-BOB. TABIAT MANZARASINI TASVIRLASH ORQALI BOLALAR TARBIYASIGA ESTETIK YONDASHUV .....	25
2.1. Ochiq havoda manzara ishlash orqali tabiatga munosabat .....	29
2.2. Manzara tasvirlashda qush va hayvonlar rasmini chish orqali estetik munosabat .....	38
UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR.....	45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	57

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi** 1997-yili O`zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirish bo`yicha “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da estetik turkumdagi fanlarni o`qitilishiga alohida e`tibor berilgan bo`lib, xususan uning “Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari” qismida uzluksiz ta`limning faoliyat ko`rsatish prinsiplaridan biri ta`limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish<sup>1</sup> lozimligini qayd etadi.

Mavzu asosida rasm chizish mashg`ulotlarining oldida turgan maqsad va vazifalar xalq pedagogikasining didaktik prinsiplari va psixologiyaning ilmiy asoslari bilan belgilanadi. Ular bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, o`quv materialini tushungan holda o`zlashtirishga erishish, ko`rsatmalilik kabi talablarni bajarish, o`qitishni ma`lum izchillik va muntazam amalga oshirishdan iboratdir. Bular quyidagi vazifalarni amalga oshirish bilan bog`lanadi:

– predmet va buyumlarning vazifalari, shakli, rangi va boshqa sifatlariga o`quvchilar e`tiborini qaratgan holda, ularda predmet va buyumlar go`zalligi haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

– mavzuga oid rasm chizish maqsadida dastlabki kuzatish malakalarini o`stirish;

– eng qiziq mazmunni tanlay bilishga o`rgatish;

– qog`ozda rasmni to`g`ri joylashtirishda shakl va rang muvozanatini saqlab qolishga erishish;

– o`quvchilarning predmetlar ko`zdan uzoqlashib borgan sari kichrayib borishini rasmda tasvirlash malakalarini o`stirish;

– predmetlarning konstruktiv xususiyatlarini, ularning rasmini, qurilishini predmet bo`laklari orasidagi mutanosiblikka rioya qilgan holda tasvirlash malakalarini o`stirish;

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 44-bet.

- odam gavdasining tuzilishini rasmda tasvirlashga o‘rgatish;
- mavzu asosida rasm chizishda obraz va narsalarning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri tasvirlash malakalarini o‘stirish.

Mavzu asosida rasm chizishni tashkil qilish mavzuga taalluqli bo‘lgan materiallarni oldindan o‘rganishni talab qiladi. Shuning uchun o‘quvchilar ishga kirishishdan avval kompozitsiyada ishtirok etuvchi predmet va ob‘yektlarning xomaki rasmlarini chizadilar. Bunday rasmlar naturaga qarab bajariladi. Mavzu asosida kompozitsiya yaratish jarayoni uchun tayyorgarlikning taxminiy tartibi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikni kuzatish, (illustrativ rasm chizishda ham shunday yo‘l tutiladi), ya‘ni hayvonlar, qushlar, daraxtlar, binolar, odamlar harakati va boshqalarni maqsadga muvofiq ravishda kuzatish;
- mavzuga aloqador bo‘lgan naturaning xomaki rasmini chizish (qalamda, akvarelda, shuningdek sinfda, uyda yoki ko‘chada);
- yig‘ilgan materiallar asosida qalamda kompozitsiya tuzish;
- ishni rangda bajarish;
- odam gavdasining tuzilishini rasmda tasviray olish;
- mavzu asosida rasm chizishda obraz va narsalarning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri tasvirlash.

Tasviriy san‘at o‘qituvchisi fanning barcha bo‘limlari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi boshqa fanlar bilan aloqalari, san‘atshunoslik va gumanitar yo‘nalishlari haqida aniq tasavvur hamda ularni amalda qo‘llash malakasiga ega bo‘lishi zarur. Kasb-hunar kollejlari ijodkorlarni tayyorlash bo‘yicha talablar rassom-pedagoglar oldiga mazmunan yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Eng asosiy maqsad – zamonaviy tasviriy san‘at o‘qituvchisi orqali yoshlarimizdagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarish, tasviriy san‘at pedagogikasining o‘ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini o‘quvchilarga ulashish mahoratiga ega bo‘la oladigan ustozlarni yetishtirib chiqarishdir.

Bu borada O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning “Barchamiz yaxshi

anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir"<sup>1</sup> degan so'zlari bilan ma'naviyat cho'qqisiga intilishga chorlamoqda. Buning uchun ta'lim olayotgan har bir talabani san'atga moyilligini, mavjud iqtidorlik va ijodiy qobiliyatini boyitib uni amaliy, nazariy, ilmiy jihatdan shakllantirish maqsad qilingan. Ta'limning samaradorlik mezoni uning xalqaro standartlar talablariga javob berishi bilan belgilanadi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini shakllantirish uchun bu sohadagi barcha amaliy hamda nazariy bilimlar ta'lim sifatida zarur. Bular, asosan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, amaliy bezak san'ati, haykaltaroshlik, san'at tarixi va eng asosiysi, bu bilimlarni o'rgatishning metodik asoslarini egallash hisoblanadi. Ta'lim mazmunidagi bu bilimlarni egallash vositasida bo'lajak o'qituvchi o'z sohasining ustasi bo'libgina qolmasdan, balki ana shu san'at sirlarini o'quvchi va yoshlarga ulasha olish malakasiga ega bo'ladi.

Tasviriy, amaliy san'at ta'limi va tarbiyasi mazmunida milliy san'at merosimiz bilan birgalikda umumbadiiy ta'limshunosligi va uslubiyatiga tayanish lozim. Ta'lim mazmunining muhim yo'nalishlari, umumbadiiy va milliy an'analarning ustuvorligiga amal qilishdir.

Tasviriy san'atning nazariyasini muntazam o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, – u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi – ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi»<sup>2</sup> – deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi.

Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy «San'atni o'rganayotganlar

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., "O'zbekiston", 2000, 386-bet.

<sup>2</sup> Мастера искусства об искусстве. М., 1936, Т.1, 124-бет.

tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar»<sup>1</sup> – deb aytib o'tgan.

O'qitishning asosiy talablari uchun zaruriy shartlar esa tasviriy va amaliy san'at sirlarini o'zlashtirish bilan birga o'quvchi va yoshlarga har jihatdan o'rgata olish usullarini egallashdir.

### **Malakaviy bitiruv ishining maqsadi –**

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda Maktab o'quvchilarida “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi haqida umumiy tushuncha berishni, “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratish qonuniyatlari, va “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratish metodlariga doir bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yaman.

### **Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:**

– Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy san'at tasviriy san'at darslarida “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratish qonuniyatlarini o'rgatishda o'quvchilar uchun engil usullardan foydalanib o'tish orqali bilim, malaka ko'nikmalarini rivojlantirishni.

– “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratishni shakllantirish mashg'ulotlarida innovatsion texnologiya usullaridan foydalangan holda natijali bilim berish.

### **Malakaviy bitiruv ishituzilishi:**

kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 64 sahifani tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Д.Н.Кардовский. Воспоминания, статьи, письма. М., 1960, 128-бет

**Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:**

– Boshlang`ich sinf o`quvchilarini tasviriy san`at darslarida «Qadimiy shaharlar» mavzusida kompozitsiya yaratishni shakllantirish darslarida tabiyatga muhabbat uni sevishtga qadrlashga estetik munosabatlarini osirishga mavzuni yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Boshlang`ich sinf o`quvchilarini tasviriy san`at darslarida «Qadimiy shaharlar» mavzusida kompozitsiya yaratish qonuniyatlari estetik munosabatlarini shakllantirishda maktabda o`qitiladigan “Tasviriy san`at” mashg`ulotlarining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Boshlang`ich sinf o`quvchilarini tasviriy san`at darslarida «Qadimiy shaharlar» mavzusida kompozitsiya yaratishni va munosabatlarini shakllantirishda o`qitiladigan “Tasviriy san`at” fanida kompozitsiya ustida ishlash metodlarini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

**Tadqiqot ishimizni yozishda qo`yidagi:**

analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik ko`zatuvi, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan unumli foydalana oldik.

## **I-BOB. TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYALAR USTIDA ISHLASH**

Mavzu asosida rasm chizishni tashkil qilish mavzuga taalluqli bo'lgan materiallarni oldindan o'rganishni talab qiladi. Shuning uchun o'quvchilar ishga kirishishdan avval kompozitsiyada ishtirok etuvchi predmet va ob'yektlarning xomaki rasmlarini chizadilar. Bunday rasmlar naturaga qarab bajariladi. Mavzu asosida kompozitsiya yaratish jarayoni uchun tayyorgarlikning taxminiy tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- mavzu bilan bog'liq bo'lgan voqelikni kuzatish, (illustrativ rasm chizishda ham shunday yo'l tutiladi), ya'ni hayvonlar, qushlar, daraxtlar, binolar, odamlar harakati va boshqalarni maqsadga muvofiq ravishda kuzatish;

- mavzuga aloqador bo'lgan naturaning xomaki rasmini chizish (qalamda, akvarelda, shuningdek sinfda, uyda yoki ko'chada);

- yig'ilgan materiallar asosida qalamda kompozitsiya tuzish;

- ishni rangda bajarish;

- odam gavdasining tuzilishini rasmda tasvirlay olish;

- mavzu asosida rasm chizishda obraz va narsalarning o'zaro munosabatini to'g'ri tasvirlash.

Kompozitsiya yaratishning tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar perspektiva, rangshunoslik yuzasidan olgan bilimlaridan keng foydalanishlari kerak. O'qituvchi vazifani tushuntirishda o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi darkor. Masalan, adabiy asarning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan mavzuni ishlashda bolalar e'tiborini hikoya, masal yoki ertaklarning g'oyaviy tomoniga qaratadi. Natijada o'quvchilar asardagi asosiy narsa nima, undagi qahramonlar kimlar, ularning xarakteri va sifatlari qandayligini tushuna boshlaydilar. Mavzuni tushuntirgach, o'qituvchi asarning mazmuni haqida suhbat o'tkazib, vazifani aniqlashtiradi. Birgina mavzuni turli xil mazmunda har birini o'ziga xos ko'rinishda tasvirlash mumkin. Masalan, «Bizning qurilishlarimiz» mavzusiga o'quvchilar shaxsiy kuzatishlari orqali yig'ilgan materiallar asosida turli

konstruksiyalardagi zamonaviy uylarni, har xil mashinalarni, turli ishlarni bajarayotgan odamlarni tasvirlashlari mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi mavzuni qanchalik keng va to'liq tushuntirsa, bolalar chizgan rasmlar shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi.

Kompozitsiyaning umumiy sxemasi haqida o'ylayotgan bola nima qayerda tasvirlanishi, masalan, qaysi tasvir qanday yuzada, qog'oz sathining qayerida joylashishini, qanday ranglar bilan ishlanishini tasavvur qilishi, rasmda asosiy narsa yoki obraz kim yoki nima bo'lishini bilishi kerak.

Kompozitsiyani tugatish jarayoni muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ba'zi narsalar rasmini to'g'rilash va aniqlashtirish orqali ko'pincha o'quvchi rasmning bir butunligini buzadi, natijada kompozitsiyada yorug', soya va yarim soyalarning rasmdagi o'zaro uyg'unligi o'zgaradi. Bunday hollarda o'qituvchining mo'yqalamni qo'lga olib, rasmni tuzatishi to'g'ri bo'lmaydi. O'quvchining xatosini tushuntirib, uning o'ziga rasmdagi xatolarni tuzatishni o'rgatish kerak. Tushuntirishda ko'rsatmali materiallardan, o'quvchilarning namunali rasmlaridan, rassomlar yaratgan suratlardan namunalar ko'rsatish yaxshi natijalar beradi.

Agar sinfda boshlangan ish dars oxirigacha tugallanmasa, o'qituvchi uni tugallashni uyga vazifa qilib topshirishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi keyingi dars boshlanishida uyda bajarilgan ishlarning muhokamasini o'tkazadi.

Rasmlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning o'z fikrlarini bayon etishlariga imkon berish kerak. Ularning javobidan mavzu qanday o'zlashtirilganligini va kompozitsiya qoidalari ularning ijodlarida qay darajada saqlanib qolganligini bilib olsa bo'ladi.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida turli xildagi san'at asarlarining reproduksiyalari bo'lishi talab etiladi. Bu suratlar (reproduksiyalar) o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Bunda suratlarining kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi haqida fikr yuritiladi.

Bolalarga shu mavzuda ishlangan parallel sinf o'quvchilarining rasmlaridan ko'rsatiladi. Bolalar sport maydonlariga ekskursiyaga olib borilsa, ularning ijodiy faolligi yanada oshadi.

Ilustrativ rasm chizish mashg'ulotlari uchun o'qituvchining hikoyaga taalluqli bo'lgan hayvonlar rasmlarini tayyorlab kelishi va hikoyani ifodali qilib o'qib berishi talab etiladi. Hikoya mazmunining ikki-uch o'quvchi tomonidan so'zlatilishi bolalar asar mazmuni va personajlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Hayvonlar va odamlar bilan bog'liq bo'lgan mavzularda rasm chizdirilayotganda o'quvchilarga o'yinchoqlar va haykalchalar ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu hayvon yoki odamning xarakterli belgilariga bolalar diqqatini jalb qilish, uni turli nuqtai nazardan ko'z o'ngiga keltira olish imkonini beradi. Mavzu yuzasidan ekskursiya tashkil etilishi lozim. Bunda bolalarning asosiy e'tibori faqat kuzatilayotgan narsalarning tuzilishi, tabiatda joylashuvigagina emas, balki tabiatning o'ziga xos go'zalligiga, ranglarning turli-tumanligiga qaratilishi bilan ularda estetik idrok etish malakalari tarbiyalab borilishi kerak.

Ekskursiyada quruq kuzatish bilan chegaralanish yaramaydi. Uni suhbat vositasida amalga oshirish va bu suhbatda bolalar faol ishtirok etishlari lozim. Bu ular tafakkurining o'sishiga, xotira va tasavvurlarining rivojlanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi.

O'qituvchi bolalar ishini o'z vaqtida nazorat qilib turmasa, ko'pchilik bolalar chala ishlarini ham bo'yab qo'yadilar. Muvaffaqiyatsiz chiqqan rasm bolaning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Shunday ish bir necha bor qaytarilsa, o'quvchining chizishga bo'lgan qiziqishi susayadi. Ana shunday muvaffaqiyatsizlikni kamaytirish maqsadida o'qituvchining ruxsatisiz bolaning rasmni bo'yashi qat'iy taqiqlanishi lozim. Darsning oxirida muvaffaqiyatsiz ishlangan ishlardan bir nechtasini tanlab olib, bolalar ishtirokida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tahlilda rasm kompozitsiyasi, rangi, tasvirning ishonarli yoki ishonarsiz ekanligi, obrazlar va narsalarning o'zaro bog'liqligi hamda boshqalar haqida fikr yuritiladi. Shunday qilingan taqdiridagina bolalar to'g'ri va noto'g'ri ishlangan ishlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lalilar.

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy

sogʻlom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy sanʼat darslarida sanʼat va sanʼatkor olami, sanʼatning ijtimoiy vazifasi va oʻziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni oʻrganib borish orqali oʻquvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy sanʼat va meʼmorlikdagi goʻzalliklarni koʻra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni oʻrganib boradilar. Shuning uchun ham tasviriy sanʼat oʻquv predmetining bosh maqsadi oʻquvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkurni yuksaltirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

**Borliqni idrok etish va kompozitsiya** darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish bolalar tarbiyasiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻquvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shoh-shabalarning shakl va yoʻnalishini turli-tumanligi, barglarning rangi va shakli, nafisligi va yoqimlilikini bilib oladilar. Shuningdek, gullarning rangi va shakli, xilma-xilligi, bahor va kuz manzarasining goʻzalligi, ninachi, kapalak, qushlarning engil va nafis parvozi ham oʻquvchilarni hayajonlantiradi.

**Har qanday kompozitsiya ishlash qatʼiy ketma-ketlilik asosida boʻladi.**

Xususan:

1. Mavzu yuzasidan mazmun tanlash.
2. Mavzu yuzasidan kuzatish ishlarni olib borish. Ayniqsa, manzara, turmush, animal janrlarda rasm ishlaganda bu metod qoʻl kelsa, tarixiy, batal, marina janrlarida rasm ishlaganda esa sanʼat asarlarining reproduksiyalari, slayd, diopozitiv, diafilm, foto va otkritkalardan foydalaniladi.
3. Rasm oʻlchovi va formatini tanlash.
4. Tanlangan mazmunni dastlabki kichik oʻlchovdagi ishchi eskizda aks ettirish.
5. Rasm uchun qoralama, ranglamalarni bajarish. U dars, darsdan tashqari vaqtlarda ham bajarilishi mumkin.
6. Rangtasvirni chiziqli tasvirini ishlash.

7. Rangtasvirni bo`yoqlar bilan tasvirini ishlash. Mazkur tartib mavzu, mazmun, o`quvchilarning tayyorgarligi, qobiliyati, tasvirlash imkoniyatlariga qarab o`zgarishi mumkin. Bu o`zgarish ish hajmini ko`payishi yoki kamayishi hisobiga, shuningdek, tayyorgarlik va rasm ishlash bosqichlarida ham bo`lishi mumkin.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg`ulotlariga ko`pincha 2-3 soat vaqt ajratiladi. Ularning birinchi soatida mavzu, mazmun aniqlanadi, material to`planadi, ishchi eskiz tayyorlanadi, chiziqli rasm ishlanadi. Mashg`ulotlarning ikkinchi soatida esa rasmni bo`yoqlar bilan bo`yaladi. Murakkab mazmundagi rasmlar ishlaganda esa, birinchi soatda tayyorgarlik, ikkinchisida eskiz va chiziqli rasm, uchinchisida, ish bo`yoqlar bilan bajariladi.

### **1.1. Tasviriy san`atni o`qitishda mavzuli kompozisiya ishlash mashg`ulotlarining ahamiyati.**

Mavzu asosida rasm ishlash – tasviriy san`at predmetining eng qiziqarli va eng zarur bo`limlaridan biridir. Mavzu asosida chizilgan rasmlar mazmunli bo`lishi lozim. Mazmunli rasmlar chizish uchun hayotimizdan olingan mavzular, boshqa mamlakattar va davlattardagi odamlar va hayvonlar hayotiga oid mavzular, adabiy asarlar (ertak, masal, hikoya, povest, she`r va hokazolar) manb`a bo`lib xizmat qiladi.

Odatda, o`qituvchi vazifa berishda bir yoki bir necha mavzularni tavsiya etadi. O`quvchilar esa birontasini tanlab, o`sha asosda rasm chizadilar. Sportga, fantastikaga oid mavzular ham o`quvchilarda zo`r qiziqish uyg`otadi. Ayniqsa xokkey, futbol, boks, tennis kabi o`yinlar asosida chizilgan bolalar rasmlari boshqa mavzudagi rasmlardan o`zining yuqori saviyada ishlanganligi bilan farq qiladi. Bu narsa tabiiy albatta. Chunki bolalar o`yinning shu turlari bilan shug`ullanadilar yoki bunday o`yinlarni televizor ekranlaridan tez-tez tomosha qiladilar. Natijada ular o`yin yoki tomoshadan katta taassurot oladilarki, u bolalar tasavvurida uzoq vaqtgacha saqlanadi. Bolalarga «Ko`chamizda futbol o`yini», «Gimnastika bo`yicha birinchilikda», «Yugirish bo`yicha musobaqa», «Boks» va boshqa shu

kabi sportga oid mavzularni chizish uchun tavsiya etish mumkin.

Qiziqarli mavzular qatoriga «Havo jangi», «Ippodromda», «Dorboz bola», «Hayvon o'rgatuvchi», «Bo'ron», «Sirkda», «Hayvonot bog'ida» kabi mavzularni ham kiritish mumkin. Xayol va tasavvur asosida rasm chizish mashg'ulotlarida «Eng yaxshi ko'rgan o'qituvchim, onam, mening do'stim» mavzularida rasmlar ishlash ham mashg'ulotlar samaradorligini, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ular o'zlari sevgan kishilarning rasmini asliga o'xshatishga jon dildan harakat qiladilar. Erishilgan yutuq va ish natijalaridan esa zavqlanadilar.

Ma'lumki, bolalar ertaklar asosida ham zo'r ishtiyoq bilan rasmlar chizadilar. Bolalar sevib o'qiydigan yoki tinglaydigan ertaklarga rasm chizdirilsa, yana ham samarali natijalar beradi. Bunday ertaklarga «Bo'girsoq», «Bo'ri bilan Tulki», «Tulki bilan Turna», «Sholg'om», «Qizil shapkacha», «Susambil», «Maqtanchoq quyon», «Baliqchi bilan baliq haqida ertak» va boshqalarni kiritish mumkin.

Mavzuli rasm chizish darslarida o'quvchilar narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, san'at haqida suhbat darslarida olgan bilim va malakalaridan keng foydalanadilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning

har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo'yadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi. Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas. Maktablarda tasviriy san'atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash zarur bo'ladi. Biroq tasviriy san'atdan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor etilmaydi. Shuningdek, ulardan to'laligicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to'g'ri emas.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

- o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go'zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, hatti-harakatini qo'llab-quvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish:

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi.

O'quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko'ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o'rgatiladi.

O'qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko'rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg'irdan so'ng o'simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo'ygandek ko'rinishi, ulardagi yomg'ir donalarining kumushdek yaltirab ko'rinishini takidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg'ish ranglarining oltin tusga kirganligini, to'kilgan barglarning shildirab "gaplashishi" obrazli ko'rinishda ifodalanadi. Bolalar o'z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so'zsiz tasvirlanuvchilarning o'lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jixatdan o'ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko'rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadaligi haqida o'ylaydilar. O'quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o'ylar ekanlar, o'qituvchi o'z e'tiborini ularning tushunchasiga mos bo'lgan voqea va hodisalarning go'zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go'zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak – atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o'rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni

o`zlashtirishga samarali ta'sir ko`rsatadi. Ayniqsa, u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada, u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## **1.2. Tasviriy san'at mashg`ulotlarining vazifalari.**

Maktabda tasviriy san'at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin:

### **1. Tasviriy san'at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular:**

– borliqdagi va san'atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish;

– bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish;

– tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug`-soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish;

– rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish;

– kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish;

– tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish;

– san'atga nisbatan qiziqish uyg`otish, uni qadrlashga, sevishga o`rgatish.

### **2. Tasviriy san'at darslarining qo`shimcha vazifalari, ular:**

– borliqni, hayotni bilishga ko`maklashish;

– milliy g`urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish;

– bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal);

– mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish;

– bolalarni turli kasb va hunarlarga yullash.

Har qanday o`quv predmeti ta`lim mazmunida, albatta, o`zbek halqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma`naviy merosni o`ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o`zbek halqining dunyoga mashhur bo`lgan me`morchilik, amaliy va tasviriy san`at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o`rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta`lim mazmunining viloyat va shaharlar bo`yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O`zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san`at va me`morchilikning rivojlanishida o`ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo`rg`on, Rishton, Shahrisabz, Nurota, Marg`ilon, G`ijduvon, Urgut, Xo`jayli va boshqa shaharlarning san`atida ham yaqqol ko`rish mumkin.

Milliy san`atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o`rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o`quvchilarga o`rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o`z o`rnini topa olmaydi. Aks holda, o`quvchilarimiz milliy qobiqqa o`ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo`la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko`p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san`at, dekorativ-amaliy san`at, me`morchilik san`ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o`quvchilarga tasviriy va amaliy san`atdan beriladigan malakalarni unutmashimiz zarur.

O`qituvchi san`atshunoslik asoslari darslarida o`lkamiz tabiati, halqimizning fidokorona mehnati, buyuk ajdodlarimizning mustaqillik uchun qahramonona kurashi kabi mavzularda yaratilgan ko`plab asarlarni namoyish etish va tahlil qilish jarayonida ulardagi nozik nafosatni ochib berishga harakat qiladi. Bu borada rassomlardan O`.Tansiqboev, N.Karaxan, A.Mo`minov, L.Salimjonova, I.Jabborov, Ch. Axmarovlarning yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida

tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san'atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o`tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O`sha davrdagi binolar, o`simliklar, hayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Ma'lumki, bolalar, tarixiy. batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlangan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, halqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko`pgina bilimlarga ega bo`ladilar.

O`quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o`rgatishda tasavvur va xotirani, jodkorlik va fantaziyani rivojlantirishda maktabda tasviriy san'atni oldiga tushadigan bironta ham o`quv predmeti yo`q. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida ijodiy fikrlashga o`rgatishda katta o`rinni egallaydigan fanlardan matematika ham bunday imkoniyatga ega emas. Xususan, matematika darslarida o`nta masalani bir yo`l yoki bir formula asosida echilsa, tasviriy san'at darslarida o`quvchilar bir masala (topshiriq) ni bir necha yo`l bilan echadilar, u so`zsiz bolalarni fikrlashga, ijodiy o`ylashga yo`naltiradi. Aytaylik, o`quvchi u yoki bu hayotiy yoki afsonaviy mavzularda kompozitsiya ishlash jarayonida, mavzu bilan bog`liq bo`lgan voqeani eslashga harakat qiladi. Bunda voqea qaysi davrda, qaerda yoki boshqa sayyoralardami, suv ostidami, tabiat qo`ynidami yoki uy ichidami, rasmda odamlar tasvirlanadimi yoki hayvonlarmi, tasvirlanadigan mavjudodlarning tuzilishi, shakli, ranglari, o`lchovlari qanaqa bo`lishligi haqida o`ylaydilar.

Eng muhimi, qog`oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari-yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo`llaydilar. Ular o`z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo`lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan topshiriqlar esa o'quvchilarni birdan bir va betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llaydi. Bolalar o'quv topshiriqlarini echishda o'zlarini ijodkor bo'lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma'lum bo'lgan yo'ldan muammoni tez va oson hal qilib qo'yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas echimlar orqali o'zlarining ijodkorlik va hayolotlarini, me'yor va uyg'unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada ma'lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko'p jihatdan ana shunday kishilarga bog'liq. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko'zda tutilmagan har qanday vaziyatlarda muammoni tez va oson echimini topa oladigan kishilar halqimizni taraqqiyotining yangi bosqichga ko'taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ruyobga chiqishga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dexqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Shuning uchun ham ta'lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuhtai nazardan qaraganda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy tafakkurni o'stirishda tasviriy san'at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o'rinni egallaydi.

O'quvchilarning ijodkorligi esa ko'proq bolalarda diqqat va tasavvurni o'stirishi bilan bog'lanadi. O'quvchi ayniqsa, boshqa sayyoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kentavr, suv parisi, dengiz shoxlari v.b.) bilan bog'liq rasmlar ishlaganda tasavvurni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. Qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz echib bo'lmaydi. Shuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan bog'liq.

Ma'lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy bo'ladilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko'rinishlar, voqea va hodisalar larzaga soladi, ularni to'ldiradi.

Tasviriy san'at o'quv predmetining muhim vazifalaridan biri, u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, fazoviy joylashuvi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar. Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarining joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani, ayniqsa ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks etiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan, rassomlar chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik

vositari yordamida asar mazmunini ochib beradilar. Bu borada shuni alohida qayd qilish lozimki, san'at asarlari, ayniqsa, tarixiy, turmush janridagi asarlar, ayrim halq va mamlakatlar haqida to'la-to'kis va keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bularni o'qiy olgan shaxslargina asarlarda ilgari surilgan g'oyalarni, tasvirlangan mazmunni chuqur idrok eta oladilar. Shuningdek, ular asarning badiiy qiymatini aniqlay oladilar va unga tegishli bahoni ham bera oladilar. Shu bilan bir qatorda asarlardagi go'zallik, ko'tarinkilik, qahramonlik kabi sifatlardan mamnunlik va zavqlanish hosil qiladilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, halqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligini shoxidi bo'lamiz. Masalan, ona-tuproq uchun kurash olib borgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rangorang go'zal manzaralarini, o'zbek halqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini ifodalovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar, O'zbekistonning shirin-shakar va rangorang mevalari, gullaridan tuzilgan natyurmortlar rasmini ishlaydilar, natijada ular Vatanga va o'z halqiga nisbatan mehr-muhabbat, milliy g'urur kabi sifatlarni shakllantiriladi.

“Daladagi ishlar”, “Ko'chat o'tkazish”, “hosilni yig'ib terib olish”, “Fermada”, “Bizning qurilishlarimiz ” kabi mavzularda rasm ishlash, halqimizning turli sohadagi (mediklar, kosmonovtlar, o'qituvchilar, olimlar, madaniyat va san'at arboblari, qishloq xo'jaligi xodimlari v.b.) shijoatli mehnatini, mehnat



qahramonlarining obrazlarini ifodalovchi tasviriy san'at asarlarini namoyish etish orqali bolalarda mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifalaridan biri bolalarni turli kasb va hunarlarga yo'llash hisoblanadi. Ma'lumki, har bir bolada u yoki bu hunarga, ilmga havasi bo'ladi. Bu havas har doim har bir bolada ochiq namoyon bo'lmaydi, ayrimlarida ochiq, ayrimlarida yashiringan bo'ladi. Maktab jamoasining, har bir o'qituvchisi va tarbiyachisining vazifasi har bir boladagi mavjud havasni rivojlantirish, yashirincha havasini ro'yobga chiqarib, ularni san'atni tushunish va hurmat qilishga o'rgatishdan iborat. Maktabdagi boshqa fanlar qatori tasviriy san'at darslarida ham bolalarni ko'pdan-ko'p hunar va kasblarga yo'naltirish, ularni tarbiyalash imkoniyatlari bor. Xususan, rassomlar tomonidan ishlangan san'at asarlarida mashhur turli kasb egalari, bunday kishilarning ish jarayonlari (mehnat qahramonlari, xizmat ko'rsatgan kishilar, militsiya xodimlari, olimlar, o'qituvchilar, injenerlar, dehqonlar v.b.) aks etadi. Shuningdek, tasviriy san'at haqida olib boriladigan suhbatlarda mashhur halq amaliy san'ati ustalari, rassomlar, haykaltaroshlarning hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi.

Tasviriy san'at darslarida bolalar turli kasb va hunarlar haqida rasm ishlaydilar (Masalan, "Novvoy", "Fermada", "Qurilishlar", "Olimlar munozarasi", "Sirkda", "Otchoparda", "Fazoga parvoz", "Sport o'yinlari", "Chavandoz", "Kurash", "Sahnadagi o'yin", "hayvon o'rgatuvchi", "hosilni yig'ib terib olish", "Dorbozlar", "Avtopoyga", "Sehrgar", v.b.). Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi so'zsiz suvratda aks etgan kasblarning mazmuniga to'xtaladi hamda bu kasblarga bolalarni qiziqtiradi.

Hozirgi kunda biz bolalar orasida maktabdan bezish hollarining ko'payish kuzatilmoqda hamda jinoyatchilik va qonunbuzarlikning oshib bormoqda. Bolalarda madaniyatning pastligi, ularning bo'sh vaqtlarini san'at, sport bilan band qilib qo'yilmaganligi, o'qish jarayonida bolalarning qiziqishlarining hisobga olinmaganligining, bolalarga maktabda inson emas mehnat resurslari sifatida qarab kelinayotganligi oqibati deb bilamiz. Bundan buyon ta'limni insonparvarlashtirish

talabalaridan kelib chiqqan holda totalitar tuzum davrida maktablarda va maktablardan tashqari muassasalarda ro'y berib kelgan kamchiliklarni bartaraf etish, ta'lim va tarbiya ishlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida amalga oshirish hozirgi kunning asosiy vazifalardan bo'lib turibdi. Shuni yaxshi bilish lozimki, badiiy madaniyat asoslaridan hisoblangan tasviriy san'at, bu bolalarning ko'ngil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarga ijodkorlikni, tafakkurni badiiy-estetik didni, fahm-farosatni o'stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga, uni o'zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga o'rgatuvchi o'quv predmeti deb qaramoq lozim. Tasviriy san'at ijodiy ishlar jarayonida o'z vazifalarini bajara borib bolalarga quvonch va qalb ko'tarinkiligini olib keladi, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.



**Tasvirning yaxlitligi va birligi.**

## **II-BOB. TABIAT MANZARASINI TASVIRLASH ORQALI BOLALAR TARBIYASIGA ESTETIK YONDASHUV**

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi. Dekorativ kompozitsiya darslarida o'quvchilar naqshlar, amaliy san'at buyumlaridagi go'zallikni his qiladilar va o'zlari ham shunday kompozitsiyalar tuzishga harakat qiladilar. Shu maqsadda, bolalarga halq amaliy san'ati namunalari ko'rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O'quvchilar o'zbek va qardosh halqlarning naqshlarini kuzatish va o'rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go'zalliklarni, shakl va rasm ranglarining garmonik birligini tushunadigan bo'ladilar. Ming yillar mobaynida ustadan-ustaga, qo'ldan-qo'lga o'tib, har jihatdan takomillashib, go'zallashib borgan halq san'ati namunalari bolalarni xayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali amaliy san'at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Gullar, hayvonlar va parandalarni natura sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida o'qituvchi ularning tuzilishidagi shakl, rang, o'lchovlari, harakatlaridagi nafosatni qayd qiladi.

O'quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo'laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to'lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo'lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil parvozi, baxorgi va kuzgu manzaralarning chiroyi, manjuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechgi miltillab ko'rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday estetik his-tuyg'uning o'sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya'ni "xushbichim", "quvonchli", "bayramdagidek" ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.


O`quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e`tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko`ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o`rgatiladi.

O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirab ko`rinishini takidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`ish ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarning shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifodalanadi. Bolalar o`z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so`zsiz tasvirlanuvchilarning o`lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatdan o`ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko`rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadaligi haqida o`ylaydilar. O`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o`ylar ekanlar, o`qituvchi o`z e`tiborini ularning tushunchasiga mos bo`lgan voqea va hodisalarning go`zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go`zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak – atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o`rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Manzarani bo`yoqlar yordamida chizishdan avval qalam yordamida uning alohida qismlarini chizish o`rganib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo`lishida manzara elementlari: daraxtlar, bulutlar, tog`lar, joyning tuzilishi, shakllari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun manzara chizishda tabiatni sinchiklab o`rganib chiqish talab qilinadi. Daraxtlarning har bir turi o`z tuzilishiga ega. Daraxtlar barglar tuzilishi va kattaligi bilan farq qiladi. Ularning shoxlari perpendikular yoki gorizontaal o`sishi mumkin. Misol uchun olma daraxti. Bir xil

yoshdagi daraxtlar hammasi bir xil ko`rinishda, katta daraxtlarning shoxlari esa qalin, turlicha o`sgan bo`ladi.

Daraxtlarning har bir ko`rinishi bir-biridan farq qilishi bilan birga, rangi ham boshqacha bo`ladi. Qarag`ay, archa, terak, chinor kabi daraxtlarni taqqoslab, tashqi ko`rinishining qanchalik farq qilishini tuzilishi va siluetidan bilib olish mumkin.



### **Daraxtlarning siluetli tuzilish tasviri.**

Har bir daraxtning xususiyatlarini o`rganib olish uchun asl nusxasidan ko`plab suratlar chizishga to`g`ri keladi. Bunday o`ziga xos xususiyatlar daraxtlarni tasvirlashning zarur shartlaridan biridir.

Manzarani chizishda chiziqli va havo perspektivasi qoidalari haqidagi bilimlarni aniq bilish talab etiladi. Bu ikki perspektiva turi manzarani tasvirlashda bir-birini to`ldiradi. Birgina chiziqli perspektivasi rasmda to`g`ri tasvirni bera olmaydi. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayibgina qolmay, ko`rinishi, chiziqdari, yorug`ligi, rangi xiralashib ko`rinmay boradi. Daraxtlar bizga qanchalik yaqin bo`lsa, ular shunchalik aniq va ravshan ko`rinadi. Yaqindagi daraxtlar barglarining tuzilishini ham ko`ramiz. Uzoqlashganda aniq ko`rinmaydi, belgilari sezilmaydi. Shuning uchun ham bizga yaqin bo`lgan narsalarning aniq tuzilishlarini izchillik bilan chizamiz. Havo perspektivasi, narsalarning fazoviy

o`zgarishlari hisobga olinmay bajarilgan rasmlar tekis, yassi bo`lib chiqadi.

Manzarani maromida tasvirlab berish ham katta ahamiyatga ega. Manzara kunduzi, ertalab va kechqurun o`ziga xos ko`rinishga ega bo`ladi. Agarda manzara ertalab yoki kechqurun chizilsa va ular bir-biri bilan taqqoslashtirilsa, farqi yaqqol seziladi. Ertalab atrof go`yoki tutun bilan qoplangandek bo`ladi. Demak, ertalabki manzarani chizganda ort tomondagi ko`rinish biroz xiralashtirib tasvirlanadi. Oldinda joylashgan predmetlar tuzilishini biroz aniqroq qilib chizish kerak. Kechqurun esa aksincha, osmon tusida ko`pincha narsalarning tuzilishi aniqroq ko`rinadi. Havo bulut bo`lgan paytda yer, undagi narsalar xiraroq, qoraroq ko`rinadi.

Yorug` va soyaning farqi quyoshli va bulutli kunda ham, ertalab va kunduzi ham, kechqurun va oydin kechada ham ajralib turadi.

Suvdagi akslarni tasvirlash biroz qiyinchilik tug`diradi. Narsaning suvdagi aksi har doim o`z tusidan to`g`roq bo`ladi va narsaning atrofi, chiziqlari, aniqligi kamayib boradi. Suv yuzasi notinch bo`lsa, aks ettirish yanada murakkablashadi. Manzarani ifodaviy tasvirlashni o`rganishga tabiat ko`rinishini har kuni chizish mashqi orqaligina erishish mumkin. Murakkab manzara chizishni boshlashdan avval uning ma`lum bir qismini chizishni o`rganib olish kerak. Manzara ko`rinishining oddiy bo`laklari, daraxtning bir shoxi, bir daraxt tanasi, ildiz qismini chizib o`rganish lozim bo`ladi. Bunda, ayniqsa, alohida daraxtni chizishga e`tibor qaratish kerak. Osmondagi bulutlarni chizish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Manzara chizish yoki uning biron-bir bo`lagini tasvirlashga oid alohida qoidalar yo`q. Manzarani tasvirlash ham boshqa narsalarning asl nusxasini chizish kabi bajariladi.

### **Manzarada bargli daraxtlarni tasvirlash.**

Har qanday obyektning asl ko`rinishini tasvirlash eng yaxshi ko`rinadigan joyni, ya`ni mazmunga ega bo`lgan joyni tanlashdan boshlanadi.

Daraxtni chizish uning balandligi, kengligi, barglari bilan qoplangan holdagi umumiy ko`rinishini chizishdan boshlanadi. Shundan keyin daraxtning tanasi balandligi va qalinligiga nisbatan bargli umumiy hajmi belgilanadi va ular katta

qismlarga ajratib olinadi. Shoxlarning yo`nalishlari va ular orasidagi masofalar ham belgilanib olinishi kerak. Ishni boshlashda daraxtning nisbatlari(balandligi, kengligi, tana shoxlarining nisbati)ni to`g`ri belgilash juda muhim. Alohida shoxlarini chizganda har bir bargli novdani chizib chiqish shart emas. Daraxtning umumiy hajmi, tuzilishini ko`ra bilish kerak. Daraxtning yerga va osmonga nisbatan rang-tusi, uning umumiy yoritilganligi hisobga olinib, tanasining tusi ham to`g`ri ko`rsatiladi va asosiy soyalari qo`yib chiqiladi. Uzoq va yaqin joylaridagi rang tusi muntazam taqqoslanib, iloji boricha daraxtning hajmi – fazoni, bo`shliqni ko`rsatib berishga harakat qilish lozim.

Tasvirlash jarayonida eng asosiy talab, aynan shu daraxtning o`ziga xosligi, asosiy qismlarini ko`rsatish va unga ikkinchi darajaliligini bo`ysundirishdir. Aks holda tasvir mazmunsiz chiqadi. Masalan, tut daraxtini tasvirlaganda uning umumiy shakli, ko`rinishi, o`ziga xos belgilarini ko`rsata olish kerak. Har bir daraxtni o`z turiga o`xshashligini chizib ko`rsatish uchun qalam bilan ishlash malakasiga ega bo`lish lozim. Bunda chiziqlar yo`nalishlari, barglar xarakteri va umumiy hajm ko`rsatib berilishi lozim.

Agarda shoxlari pastga osilib turgan bo`lsa, unda chiziqlar yuqoridan pastga yo`nalgan bo`lishi kerak. O`tlar pastdan yuqoriga o`sadi, shunga ko`ra tasvirlashda shtrixlar ham vertikal yo`nalishda bo`ladi.

### **2.1. Ochiq havoda manzara ishlash orqali tabiatga munosabat.**

Ochiq havodagi manzarani ishlash uchun biror kenglikdagi turli ko`rinishlarga ega bo`lgan joyni tanlash lozim. Bu joy baland-pastliklarga ega va gorizontdan balandlikda bo`lishi mumkin. Ishni boshlashda manzarani alohida bo`laklarining kattaligi bir-biri bilan taqqoslanadi. Manzaraning asosiy xosliklariga e`tibor beriladi, joyning tekisliklari va yer yuzining tuzilishi diqqat bilan o`rganib olinadi. Yerdagi katta-katta balandliklar, do`ngliklar va shu kabilar mavjud. Chiziqli perspektiva qoidalariga asosan, notekis joylardagi masofa qisqargan holda ko`rinadi. Ufq chizig`iga qanchalik yaqin bo`lsa, qisqarishlar shunchalik kuchli bo`ladi.

Ochiq havodagi manzarani chizishdan avval, biron obyektning oldingi ko`rinishdagi telegraf ustuni, daraxt yoki bino tanlanib, balandligi ixtiyoriy chizib olinib, unga nisbatan taqqoslab chizish davom ettiriladi. Tabiat ko`rinishidagi ustunning bo`lakli nisbatlari rasmdagi ustunda belgilanib, manzaraning chizilishi kerak bo`lgan qismlari shu asosda aniqlab olinadi. Masalan, olis ko`rinishdagi yaylov ustundan orqa tomonda bo`lib, uni ikki qismga ajratib turibdi, deylik. Agarda yaylov ustunni ikkiga bo`lib turgan bo`lsa, unda suratda ustun ikkiga bo`linib, gorizontal chiziq o`tkaziladi – bu yaylovning joylashishi bo`ladi.

Manzara ko`rinishining chap va o`ng tomonida joylashgan obyektlar masofalari aniqlab olinadi. Masalan, ustun balandligi uzoqda ko`rinayotgan inshoot masofasidan ikki yarim barobar katta bo`lsa, unda suratda uni ikki yarim marotaba uzoq masofada belgilash kerak.



*F. Vasilyev. Keksa eman daraxtining tanasi.*

Manzaraning asosiy qismlari: yer, osmon va uzoq joylari chizilgandan keyin ularning umumiy tuzilishi chiziladi. Manzaraning katta qismidagi asosiy ranglari beriladi, oldingi koʻrinishdan boshlab mayda detallari belgilanadi. Yerning uzoqlashib boruvchi xiralashishi hamda koʻrinishlarning soya-yorugʻ farqlari koʻrsatiladi. Osmondagi bulutlarni tekis oq yoki qora koʻrinishda chizish mumkin emas. Pastdan qaraganda biz bulutning murakkab shaklini koʻramiz. Havo perspektivasi asosida tasvirlash vaqtida ichkariga uzoqlashib borgan sari narsalarning koʻrinish chiziqlari ingichka boʻlib boradi. Ularning hajmi aniqligi kamroq seziladi. Eng yaqindagi bilan uzoqdagi obyektlarning tusini solishtirib, oldingi koʻrinishdagi soyalarni toʻq qilib chizamiz.

Va nihiyat kerakli tuzatishlar kiritilib, surat umumlashtiriladi.

Manzaraning rangtasviri – rangtasvir dasturining kerakli boʻlimi boʻlib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir.

Tabiat benihoya jozibali va goʻzaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Manzara tasviriy sanʼatning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Goʻzal manzara asarlar oʻzining nafosatli taʼsiri bilan insonni maʼnaviy boyitishga erishadi.

Ona tabiat qoʻynida boʻlish ijodiy fikrlar tugʻilishi va ruhlanishni oʻzgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda oʻsha muhitni chuqur oʻrganmay, tahlil etmay xayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni oʻziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni maʼlum holatini rangli va tusli xususiyatlarini toʻlaqonli yetkazishga oʻrgatadi.

Dala amaliyotida ijod qilish xona ichkarisidagi ishlash sharoitidan farqlanadi. Kuchli yorugʻlikni hosil qiluvchi yorugʻlikning koʻpligi, reflekslarni turli-tumanligi, manzara obyektlarini kuzatuvchidan yiroqligi, yoritilishning tezlik bilan almashuvi, yil fasli va ob-havoning turli holati – buning hammasi yosh rassomga yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etyudining muhim afzalligi – tabiatning maʼlum holatini, yoritilganligini, havo muhit taʼsirini maʼnoli makonni yetkazishdir. Manzara

tasvirini bunday sifatlariga rassom havo perspektiva qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishlash usuli, umumiy tus va rang holatini to`g`ri topish yordamida erishadi. Manzara obyektlari va narsalarni rang, och-to`qligi va to`yinganligi bo`yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farqlarini belgilash – bular etyudning rangli munosabatlarini to`g`ri ifodalashda asos qilib olinadi.

Manzara etyudini mahoratli tasvirlash – demak uning rang munosabatlarini naturada ko`rinayotganday o`xshatib bajarishdir. Bunday talablar natyurmortning rangli tasvirida ham asos bo`lgan. Manzara etyudining birinchi mashqlaridanoq naturani xaqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to`qligi va to`yinganligi, rang munosabatlarini aniq topish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitraning bo`yoqlar doirasiga o`tkazadi, so`ngra tomoshabin etyuddagi ko`rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etyuddagi rang munosabatlarini o`rnatilganligi tufayli qabul qiladi.

Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham, rang jihatdan ham juda tez o`zgaruvchidir. U yil fasllariga qarab, bulutli havo, yorug`lik nurlarini tushish burchagiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) qarab o`zgaradi. Kunning qoq peshindagi yoritilishni ertalabki va kechkiga qaraganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etyuddagi tus munosabatlari ma`lum tusli va rangdorlik darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang munosabatlarini ifodalashda palitraning och va yorqin bo`yoqlari (quyoshli kun), boshqasida esa kam to`yingan quyuc, qoramtir bo`yoqlar qollaniladi (bulutli kun). Shunday qilib etyud tasvirlashda yoritilish kuchi va umumiy tusni hisobga olish kerak. Bunga, avvalambor barcha narsalarni yorqinligi, ranglarni to`yinganligi bo`ysunishi zarur. Shuning uchun etyudni tasvirlashga kirishishdan oldin quyidagi masalani yechish zarur: naturaning etyudida ko`proq yorqin, to`q va to`yingan dog`lar rang va yorug`lik kuchi jixatdan qanday bo`ladi. Shular atrofida etyudning barcha narsalari va obyektlari rang munosabatlarida qurilgan bo`lishi kerak.

Ko`zning moslashuvi deb ataluvchi (yorug`likka ko`zning sezuvchanligining

ko'tarilishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib to'qroq bo'lib ko'rinadi.

Masalan o'rmon yoki daraxtzordan manzarali joy tanlanadi, o'rmon, daraxtzor ichiga kirib boruvchi yo'lakcha bo'lsa, manzara yanada mazmunli bo'ladi. Shaharda xiyobonlarni ham tanlash mumkin. Joy tanlab olingandan keyin kompozitsiya mazmuniga ega bo'lgan kuzatish nuqtasini topish lozim. Kunning qaysi payti yoki qanday ob-havo sharoitida bu ko'rinishni chizish yaxshi ekanini oldindan aniqlab olish kerak. Buning uchun tasvirlashga tanlangan manzarani bir necha marta turli sharoitlarda kuzatish kerak bo'ladi. Shunda eng qiziqarli manzarani tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi. Ana shunday yondashish bilan haqiqiy ijodiy ishlashni o'rganish mumkin.

Eng yaxshi joyni tanlab olish uchun turli nuqtalardan bir necha xomaki eskizlar chiziladi. Shu bilan birga, suratning qanday bo'lishini, manzara, yer va osmonning qanday joylashishini ham o'ylab olish kerak. Bular manzaraning kompozitsiya jihatidan mazmunli chiqishida muhim ahamiyatga ega.

Surat chizish paytida xiyobonning, daraxtlarning bir tomoni yorug', ikkinchi tomoni soyadaligi biron mazmunga ega bo'ladi. Agarda manzara ko'rinishi qiziqarli bo'lsa, rasmni har qanday yorug'likda chizish mumkin.

Xiyobon, daraxtlarni chizishda ularning asosiy chizig'i va baland uchlari chizig'ini belgilab olish kerak. Har bir daraxtni, butalar joylarini belgilab, ularning nisbati, hajmi, holatini hisobga olib, asosiy shaklini chizib olish kerak. Daraxtlarni tasvirlayotganda alohida barglarini, oldingi ko'rinishdagi o'tlarni alohida-alohida chizib ko'rsatish shart emas. Umumiy rang, tusni ilg'ab olishga intilish, ularni boshqa ko'rinishlar bilan taqqoslab borish lozim.

Daraxtlarni chizishda ularning yoshi va turiga qarab o'ziga xos xususiyatlari, farqini ko'rsatib berish lozim. Daraxtlar va yerning osmonga nisbatan rang-tusini aniqlab, ob-havo holati va yorug'lik tusini ko'rsatish kerak. Shundan keyin oldinda va uzoqda turgan daraxtlar rang-tusining farqi, uzoqlashib borgan daraxtlar va yo'llarning xiralashib borishi ko'rsatiladi. Yerga tushuvchi soyalar, quyosh

nurlarining tovlanishi ham chiziladi. Turli daraxtlarning ranglardagi farqi ko`rsatiladi. Manzarada ham har qanday tasvirda bo`lgani kabi narsalarning asosiy va ikkinchi darajali bo`laklari bo`ladi. Ana shu asosiy – birinchi va ikkinchi darajali narsalarga ko`proq e`tibor berish kerak.

Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko`rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to`g`ri aniqlash va etyudning jozibador ko`rinishiga erishish mumkin emas.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara obyektlari va narsalarni yaxlit ko`rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko`rinishni yorqin ranglarda, keyingi ko`rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko`rish orqali manzaraning perspektiv o`lchamlarini, ularning turli ko`rinishdagi rang munosabatlarini to`g`ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar birdamligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo`yoqlar, kechqurun esa sariq zarg`aldoq, bulutli kunda esa neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O`rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-xavorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturadan ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarini mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak.

Kolorit hissiyotining tomoshabinga ta`sir kuchi shunda namoyon bo`ladiki, kartinadagi narsalar, obyekt yoki voqea ma`lum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoniy ifodalay olsa. «Kim men uchun haqiqiy kolorist hisoblanadi?» – deb D. Didro o`zi javob beradi: «Tabiat ranglarini to`g`ri yoritilganligini tasvirlay olib kartinada uyg`unlikka erisha olgan rassomgina».

Plener sharoitida munosabatlar bilan ishlash uslubi ko`pchilik metodik adabiyotlarda muallif tomonidan yoki e`tiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha berilmaydi, ko`pincha umuman noto`g`ri «munosabatlar» tushunchasi deyilganda rang turlarini mutanosibsizligi, etyud va natura tomoshabin obrazida rang

munosabatlarini farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi.

Rassomlar ko'p asrlar oldin narsalarning ranglari muhit bilan, yoritilish sharoitlari bilan o'zgarishlarini bilishgan. Uyg'onish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risolalar yozib, chiziqli va havoiiy perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko'rinishida muxitni o'rni (Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, D. Konstabl, D. Reynolds) to'laqonli bayon etilgan. Shunday bo'lsa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Ma'lum bo'lishicha plener rangtasviri XIX asrning ikkinchi yarmida rassomlar tasvirni tusli va rangli ko'lamini saqlagan holda munosabatlar usuli bilan ishlashni boshlagan vaqtda paydo bo'lgan (V.D. Polenov, I.I. Levitan, K.A. Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo'yicha birinchi mashg'ulotlar manzaraning asosiy obyektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etyudlar bo'lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy dog'i, yer yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog'i va hokazolar).

«Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va yer tusining munosabatlarini birdaniga inobatga olib tasvirlash kerak», – deb yozgan K.A. Korovin.

I.I. Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: «Biz hali manzaradagi yer, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini bog'lash ko'nikmalarini to'laqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, barobar esa yaxlit bo'lib jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkabligi – manzarada suv, yer va osmonning to'g'ri rangli munosabatlariga erishishdir».

Misol tariqasida N.N. Ge «Bulutlar», «Dengizda quyosh botishi» va A.E. Arxipovning «Shimoliy manzara» asarlarini ko'rishimiz mumkin. Rassom N.N. Ge osmon, suv va yer munosabatlarini, old ko'rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o'zgarishlarini nozik ifodalagan. A.E. Arxipovning etyudi esa betartib to'q rang surtmalari bilan osmon, yerning asosiy munosabatlari ko'l bo'yidagi katta bo'lmagan omborxonaga tasvirlangan. Bunday dastlabki bir seansli etyudlarda naturaning yirik rang munosabatlarini astoydil tasvirlashi talabani manzara etyudidagi rang tuzilishi, uning materiallik va fazoviy sifatlarini hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaratish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib, umumiy ranglar munosabatini qisqa vaqtli etyudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega bo'lgach ikki-uch seansga mo'ljallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etyudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlarida (asosiy dog'lar), yaxlit surtmalarni qo'llash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda-bo'laklarni bajarishga o'tiladi va hokazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joylashgan (100-300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chalg'ib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bog'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar xuddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yahshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak:

- 1) plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli;
- 2) asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash;
- 3) umumiy tus va rangdorlik holati;
- 4) manzara obyektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi;
- 5) manzaraning mayda bo'laklarini tasviri;
- 6) manzarada kenglik.

Xaqqoniy tasvirlash etyudning rangdorlik qatorining qurilishiga, naturaning rang munosabatlari mutanosibligiga asoslanadi. Rang munosabatlarini aniqlanishi bir vaqtning o'zida manzara obyektlarini yaxlit taqqoslashda amalga oshiriladi. Shuning uchun plenerda ishlashdan oldin yetiborni mavjud ko'rinishning hammasini yaxlit idrok etishga yo'naltirish muhim. Faqat shunday yaxlit ko'rish manzaraning asosiy obyektlari (osmon, yer, suv, old va uzoqdagi ko'rinishlari) orasidagi ranglar farqini aniqlashga imkoniyat tug'diradi. Manzaraning (osmon, yer, daryo va h.k) barcha obyektlarini ishlash vaqtida birdaniga yaxlit ko'rish qiyin. Manzaraning barcha obyektlarini yaxlit idrok qilish uchun ancha kengroq ko'rish maydonini talab qiladi. Naturani yaxlit qabul qilishda yordam beradigan mashqlarga intererdagi natyurmortni bajarish, keyin esa, ayvonda yoki ochiq deraza tokchasida turgan gullar dastasini tasvirlashni maslahat beramiz. Mashqlarni bajarishda natyurmort, interer, gullar dastasi, deraza pardasi, deraza orqasidagi shahar ko'rinishlarini ham birdaniga idrok qilib ko'rish juda muhim.

## **2.2. Manzara tasvirlashda qush va hayvonlar rasmini chish orqali estetik munosabat.**

Insoniyat qadimdan hayvonot olami va tabiat bilan chambar-chas bog'liq holda hayot kechirib keladi. Shuning uchun musavvirlar azaldan tabiat go'zalliklarini, hayvonot olamini jonli bo'yoqlarda tasvirlab, kishilarga ma'naviy ozuqa berishga harakat qilganlar.

Shunday musavvirlar borki, ular ko'proq insonlar bilan hamisha yonma-yon yashovchi hayvonot olamini o'z asarlarida tasvirleydilar. Ana shunday rassomlarni **animalist** rassomlar deb ataydilar.

**Animalist** – lotincha «*animal*» so'zidan olingan bo'lib, «hayvonot dunyosi» ma'nosini anglatadi.


Hayvonot dunyosi beqiyos, turli-tumandir. Tabiatan plastik harakatlanuvchi jirafadan tortib, cheksiz erkin ranglarga ega bo'lgan kapalaklar, qushlar rassomlarga ilhom baxsh etadi va ularning shu janrda turli asarlar yaratishlariga

turtki bo`ladi.

Qush va hayvonlar rasmini tasvirlash borasida har bir talabaning kerakli bilim va malakaga ega bo`lishi talab etiladi. Qush va hayvonlar tabiatimizning chiroyi, ular biz bilan birga hayot kechiradilar. Qushlar va hayvonlar tabiatning har xil sharoitlariga moslashgan bo`lib, yashash joylari bir-biridan farq qiladi. Masalan, o`rdak vaqtining ko`proq qismini suvda suzish bilan o`tkazadi. Uning gavdasi boshiga nisbatan katta, oyog`i pardali, bular unga suvda suzishiga yordam beradi. Burgutning esa tumshug`i qayrilgan, changali kuchli, tirnog`i o`tkir va qanoti keng bo`ladi. Ko`k qarg`a, chittak, jibljibon, qaldirg`och kabi qushlar ham o`ziga xos xususiyatlarga ega.


Qushlarning rasmini chizishni o`rganishda, avvalo, tulumiga qarab turli tomondan tasvirlashni mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ularni sinchiklab kuzatish lozim. Keyin tulumlarini tez chizishni mashq qilish orqali jonli hayvon va qushlar rasmi tasvirlashga o`tiladi.

Tirik qushlarning tasvirini ishlash juda qiyin. Chunki ular tinimsiz harakatda bo`ladila.



**Chumchuqni tasvirlash bosqichlari.**

Birorta qush rasmini ishlashdan oldin uning boshiga nisbatan gavdasi, tumshug`i, dumining tuzilishini aniqlab olish kerak. Qushlarning tuzilishini geometrik jismlarga taqqoslasak, tumshug`i konussimon, boshi sharga o`xshashini payqaymiz. Gavdasi esa tuxum shakliga o`xshab ketadi. Ana shu shakllarga o`xshatib qushning boshi, bo`yni, tumshug`i, gavdasini chizish kerak. Albatta, har qaysi bo`lakning o`ziga xos tomonlarini hisobga olib, bir-biriga uzviy bog`lash lozim, aks holda qush boshqa bir qushga o`xshab qoladi.



**Turli qushlarning tuzilishi.**

Qush (turna) rasmini chizish uchun u avval sinchiklab kuzatiladi, turnaning gavdasiga nisbatan oyog`i, bo`yni anchagina uzun, tumshug`i ham uzun va uchlidir. Qog`ozga turnaning gavdasi o`rtasidan yo`nalishi bo`yicha qiya chiziq

tortib, ana shu chiziqqa uzunchoq tuxum shaklidagi gavdasi belgilanadi. Keyin bo'yini belgilovchi chiziq, oyoqlarning yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziq, so'ng dumining uzunligi belgilanadi. Chizish jarayonida qushning tumshug'i, boshi, oyog'i, qanoti, dumining o'lchamlari qayta-qayta solishtirilib aniqlanadi. Ish yorug` va soyalami asta-sekin tasvirlash bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Hayvonlar rasmini chizishda ham qushlar rasmini chizishdagi tartibga rioya qilinadi. Ularning tasvirini chizish qushlarni chizishga qaraganda birmuncha qiyin. Chunki hayvonlarning tana va suyak tuzilishi murakkabdir. Suyaklarning tuzilishini o'rganish ham tasvirni to'g'ri chizishga yordam beradi.




**Ayiqning turli holatdagi tasviri.**


Tirik hayvon va qushlar tasvirini tugal ravishda ishlash qiyin. Shuning uchun bunday hayvon va qushlarning faqat xomaki tasviri chiziladi.

Hayvonot olamini tasvirlash ham qiziqarli, ham mushkul. Doimo harakatda


boʻlgan yirik hayvonlar, mittigina parrandalarning holatini kuzatib oʻrganish va ularni tasvirlash oʻquvchilarga keyingi ijodiy ish jarayonida gʻoyatda zarur. Bu, oʻz navbatida, oʻquvchilarning harakat, nisbat, ranglarning oʻzaro bogʻliqligi kabi tasviriy sanʼatda muhim boʻlgan qonun-qoidalarni oʻzlashtirib olishlarida katta ahamiyatga ega.



**Baliqlarni tasvirlash.**



Yovvoyi qushlarni chizish usuli.



Qushlarning xomaki rasmlari.


“QADIMIY SHAHARLAR” MAVZUSIDA BAJARILGAN AMALIY  
ISHLARDAN NAMUNALAR



“Qadimiy obidalar” 60x90 xolst moybo`yoq



“Qadimiy obidalar” 60x90 xolst moybo`yoq



**Nur otadagi qadimiy obida**



**Navoiy shahridagi jomiy masjidi**



**Navoiy viloyati hududida joylashgan “Sardoba”**



**Navoiy viloyati Qiziltepa tumani hududida joylashgan Dehgaron obidasining chizma ko`rinishi.**



**“Chashma” me’moriy majmuasidagi Ko’kgumbaz masjidi (XIII asr)**



**Raboti Malik darvozasi (XI asr)**

## UMUMIY XULOSA

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morlikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar. Shuning uchun ham tasviriy san'at o'quv predmetining bosh maqsadi o'quvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkurni yuksaltirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Kompozitsiya yaratishning tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar perspektiva, rangshunoslik yuzasidan olgan bilimlaridan keng foydalanishlari kerak. O'qituvchi vazifani tushuntirishda o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi darkor. Masalan, adabiy asarning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan mavzuni ishlashda bolalar e'tiborini hikoya, masal yoki ertaklarning g'oyaviy tomoniga qaratadi. Natijada o'quvchilar asardagi asosiy narsa nima, undagi qahramonlar kimlar, ularning xarakteri va sifatlari qandayligini tushuna boshlaydilar. Mavzuni tushuntirgach, o'qituvchi asarning mazmuni haqida suhbat o'tkazib, vazifani aniqlashtiradi. Birgina mavzuni turli xil mazmunda har birini o'ziga xos ko'rinishda tasvirlash mumkin. Masalan, «Bizning qurilishlarimiz» mavzusiga o'quvchilar shaxsiy kuzatishlari orqali yig'ilgan materiallar asosida turli konstruksiyalardagi zamonaviy uylarni, har xil mashinalarni, turli ishlarni bajarayotgan odamlarni tasvirlashlari mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi mavzuni qanchalik keng va to'liq tushuntirsa, bolalar chizgan rasmlar shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi.

Kompozitsiyaning umumiy sxemasi haqida o'ylayotgan bola nima qayerda tasvirlanishi, masalan, qaysi tasvir qanday yuzada, qog'oz sathining qayerida joylashishini, qanday ranglar bilan ishlanishini tasavvur qilishi, rasmda asosiy narsa yoki obraz kim yoki nima bo'lishini bilishi kerak.

Kompozitsiyani tugatish jarayoni muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ba'zi narsalar rasmini to'g'rilash va aniqlashtirish orqali ko'pincha o'quvchi rasmning bir butunligini buzadi, natijada kompozitsiyada yorug', soya va yarim soyalarning rasmdagi o'zaro uyg'unligi o'zgaradi. Bunday hollarda o'qituvchining mo'yqalamni qo'lga olib, rasmni tuzatishi to'g'ri bo'lmaydi. O'quvchining xatosini tushuntirib, uning o'ziga rasmdagi xatolarni tuzatishni o'rgatish kerak. Tushuntirishda ko'rsatmali materiallardan, o'quvchilarning namunali rasmlaridan, rassomlar yaratgan suratlardan namunalari ko'rsatish yaxshi natijalar beradi.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

Eng muhimi, qog'oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari-yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo'llaydilar. Ular o'z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo'lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi va u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go`zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish:

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda Maktab o`quvchilarida “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratishga o`rgatish metodikasi haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim, “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratish yo`llariga doir misollar keltirish bilan yoritdim. Shu bilan birga o`quvchilarni “Qadimiy shaharlar” mavzusida kompozitsiya yaratish munosabatlarini, badiiy tafakkurini shakllantirish yo`llariga doir ishimdan na`muna ko`rsatdim. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

## TAKLIF VA TAVSIYALAR

Manzara rangtasvirini ishlash jarayonida har bir bo`lak joy tusini alohida emas, aksincha yaxlit tusda ko`ra bilish hamda ularning munosabatini ham sezish: eng ochi osmon, eng to`qi balkim yer, ularning orasidagi suv.

Tasvirning yaxlitligi va birligi – bu nafaqat yaxlit ko`rishning, balki asosiyini, ya'ni kompozitsiya markazini aniqlash hamdir. Rangli tasvir kompozitsiyasining yaxlitligi asosiy va ikkinchi darajali o`zaro munosabatdagi barcha unsurlarni birlashtirib yagona asar holiga keltirishga bog`liq.

Mavzu-voqeali asarlarning yaxlitligi ham, tasvirlanayotgan barcha buyumlar va obyektlarning kompozitsiya markaziga bo`ysundirilishi bilan yaratiladi. Sodir bo`layotgan harakatlar mantiq, personajlarning ruhiy holatlari o`zaro xarakatlari, tasvirning umumiy yaxlitligini yaratishda ishtirok etadi. Bularga kompozitsiya qurilishining hamma elementlari xizmat qiladi: ular qarash nuqtasi, simmetriya va marom, tus va rang kontrastlari, tasvirlashning texnik usullari, matoning o`lchami va boshqalardir.

Yorug`-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiydan xususiya qarab borish lozim. Avvalo asosiy obyekt oralig`idagi tus farqlarini topish muhim: natyurmortda, masalan, stol yuzasi va fon oralig`idagi ko`za, choynak va ko`zaga tushayotgan yorug`lik va b. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va erning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo`lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi.

## ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

**Avtoportret** – portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, rassomning o`zini tasvirlashiga aytiladi.

**Axromatik rang** – oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug`lik kuchlari bilan farqlanadi.

**Asosiy rang** – tabiatda mavjud bo`lgan sariq, qizil va zangori ranglar.

**Amaliy grafika** – grafika san'atining turlaridan biri. Turli xildagi yorliqlar, konvert yuzasiga ishlanadigan rasmlar, tabrik xati va telegrammalar, markalar shu turga mansubdir.

**Animalist** – (lotin «animal»- hayvon) hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh.

**Applikatsiya** – bar xil rangli qog`oz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qog`ozga yoki maxsus pannoga yopishtirish.

**Batalist** – jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.

**Vitraj** – (frans – deraza oynasi) rangli shisha, oyna bilan dekorativ xarakterdagi naqsh yoki tasvir ishlash. Odatda, rom derazalariga shunday tasvirlar ishlanib, ular o`zida nur o`tkazishi hisobiga turli ko`rinishlar hosil qiladi.

**Garmoniya** – xarmoniya (grek) – bog`liq bo`lish, munosiblik, muvofiqlik, badiiy asar qismlarining mutanosibliigi.

**Grizayl** – (frans. grizaille, griz – kul rang) kul rang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.

**Janr** – (frans. tur. ko`rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, biror bir mavzuni o`zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi. Masalan, manzarada tabiatning turli ko`rinishlari aks ettiriladi. Alohida yoki odamlar guruhini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyiladi. Meva, gul, uy buyumlari va shunga o`xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va h.k.

**Interer** – uying ichki ko`rinishini tasvirlanishi.

**Iliq rang** – olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to`q sariq, sarg`ish, zarg`aldoq

va qizil rang kabilar.

**Ilyustratsiya** – kitob, gazeta-jurnal grafikasining ko`rinishlaridan biri bo`lib, matn yoki hikoya bilan bog`liq bo`lgan, shu hikoyadagi lavhaning ko`rinishini o`zida aks ettiradigan rasmlardir.

**Inkrustatsiya** – (lotin) har xil materiallarni birlashtirilib, san`at asari yaratish.

**Kompozitsiya** – (lotin kompozitio tuzilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g`oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.

**Kompanovka** – chiziladigan buyum, manzara va boshqalarni qog`oz yuzasiga mos qilib joylashtirish.

**Kolorit** – yozilgan asarda mujassam ranglar majmuasi.

**Lessirovka** – rangtasvir texnikasi usullaridan biri. Qurigan qalin qatlam yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.

**Molbert** – qalamtasvir va rangtasvir ishlash uchun qo`llaniladigan moslama.

**Natyurmort** – (frans. jonsiz tabiat) tasviriy san`at janri. Gul, meva, sabzavot, qushlar, uy-ro`zg`or buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi.

**Plakat** – (lotin, e`lon, guvohnoma). Grafika san`atining turlaridan biri bo`lgan plakatda tasvir va yozuvlar yoki faqat yozuvlar o`zining badiiy ifodasi orqali davrning eng muhim voqcalarini tomoshabinga yetkazadi, uni kurashga da`vat etadi, ogoxlantiradi, tushuntiradi.

**Plener** – ochiq kenglik.

**Rangtasvir** – devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr bezaklari. Bu san`atda rang muhim o`rinni egallaydi va uning o`ziga xos xususiyatli tomonlaridan birini tashkil qiladi. Grafika san`atida rang shunchaki yordamchi vosita vazifasini o`tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ifodali obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligi, undagi narsalarning rang-barangligini, hamda hajmini ko`rsatadi.

**Reproduksiya** – tasviriy san`atga nisbatan olinadigan, haqiqiy badiiy

asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta hosil qilingan ko`rinishi.

**Syujet** – (frans. buyum, narsa, harakat). Tasviriy san’atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi. Hayotiy voqea, lavha, harakat.

**Tasviriy san’at** – odatda, mavjud borliqni ko`rinarli obrazlar, shakllar orqali fazoviy kenglikda, yuzada yoki tekislikda (masalan, qog`oz yuzasida, devor sathida va h.k.) aks ettira oladigan san’atdir.

Tasviriy san’at tushunchasi keng ma’noga ega bo`lib, unga grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san’ati ham kiradi. Tasviriy san’atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va bir qator o`xshashliklari bor, lekin shu bilan birga, ulardan har birining o`ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o`rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab, bir qator tur va janrlarga bo`linadi.

**Etyud** – (fransuzcha «o`rganish») yirik asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha.

**Xolst** – rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. -T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.: Sharq, 1997. - 63b.
6. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
7. S.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T., 1996.
8. B.Boymetov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 2004.
9. B.Ziyomhammadov, Sh.Abdullayeva. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001.
10. J.Majidov. Tasviriy san'atdan maktabdan tashqari ishlar. T., 1983.
11. M.N. Nabiyev. Rangshunoslik. T., 1995.
12. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T., «Fan», 2004.
13. O. Xudoyorova. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan. T., 1993.
14. N.Oyidinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. - Toshkent; O'qituvchi, 1997.
15. B.Oripov. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
16. R.Hasanov. Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
17. R.Hasanov. Uchinchi sinfdan tasviriy san'at darslari. O'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
18. R.Hasanov. Tasviriy san'at. 1-sinf o'qituvchilari uchun darslik. – Toshkent:

- Yozuvchi, 2002.
- 19 X. Egamov. Bo`yoqlar bilan ishlash. T., 1981.
  - 20 S. Abdirasilov, N. Tolipov, N.Oripova. Rangtasvir. T., «O`zbekiston», 2006.
  - 21 S.S. Bulatov. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. T., «Mehnat», 1991.
  - 22 S.S. Bulatov. Amaliy san`at qisqacha lug`ati. T., 1992.
  - 23 M.A. Mirzaahmedov. Boshlang`ich naqsh ishlash metodikasi. T., 1976.
  - 24 E.Кондахчин. Методика преподавания рисунка в средней школе. – Москва: Искусство, 1951.
  - 25 В.С.Кузин. Основы обучения изобразительному искусству в школе. – Москва: Просвещение, 1977.
  - 26 B.Z. Azimova. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T., 1989.
  - 27 S. Abdirasilov. Tasviriy san`at metodikasi. T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
  - 28 B. Boymetov. Portret qalamtasviri. T.: Nizomiy nomli TDPU rizografi, 2001.
  - 29 K. G`ulomov. Ashyolarga badiiy ishlov berish. T.: «Bilim», 2004.
  - 30 B. Tojiyev. Qalamtasvir asoslarini o`rganish. T.: Nizomiy nomli TDPU rizografi, 1994.
  - 31 N. Ten. Gips modellarining rasmi. T.: «O`qituvchi», 1994.
  - 32 R.Hasanov. Tasviriy san`atni o`qitish metodikasidan amaliy mashg`ulotlar. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2006.
  - 33 S. Abdirasilov. Tasviriy san`at atamalari. T., 2003.

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakultetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 4 T kurs bitiruvchi talabasi Cho'liyev Qahramon Erkinovichning "Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

### **Ilmiy rahbarning xulosasi**

Talaba Cho'liyev Qahramon Erkinovichning "Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasining o'rni haqida umumiy tushuncha berganligi va o'quvchilarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san'atning roli, tutgan o'rni, rangtasvirda kompozitsiyasi qonun-qoidalari, uni idrok etish usullariga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligi, rangtasvir fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etilganligi, "rangtasvir" fanida olib boriladigan masg'ulotlarda o'quvchilarning ijodkorlini, faolligini oshirishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e'tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda qiyosiy tahlil- pedagogik ko`zatuvi, tajriba-sinov, metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z echimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishida tadqiqotchi Cho`liyev Qahramon Erkinovich tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo`l qo`yilgan, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi.
2. Malakaviy bitiruv ishi matnida rangtasvir darslarining mazmuni to`g`risida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qimmatiga ta`sir ko`rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Ishni himoya qilishga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ o`qituvchi **M.X.Nurmatov**

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakultetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 4 T kurs bitiruvchi talabasi Cho'liyev Qahramon Erkinovichning "Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

### **T A Q R I Z**

Talaba Cho'liyev Qahramon Erkinovichning "Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – tasviriy san'at ta'lim standartlari mazmunidan kelib chiqqan holda va unda ko'rsatilgan talablarga rioya qilib Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasining o'rni haqida umumiy tushuncha berganligi va o'quvchilarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san'atning roli, uning tutgan o'rni, hamda Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi qonun-qoidalari va uni idrok etish usullariga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbliigi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 65 sahifani tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligiga talaba, o'quvchilarini Maktab o'quvchilarida "Qadimiy shaharlar" mavzusida kompozitsiya yaratishga o'rgatish metodikasi uni idrok etish darslarida fanni yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligi, rangtasvir fanining

imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etilganligi, “rangatasvir” fanining mashgʻulotlarida oʻquvchilarning ijodkorlini, faolligini oshirishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlashga eʼtiborni qaratganligi bilan ahamiyatlidir.

Ishi matnini oʻrganish shundan dalolat beradiki, bitiruv malakaviy ishining tuzilishi, ilmiy apparati puxta oʻylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qoʻlga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham oʻz echimini topgan.

Shunga qaramasdan bitiruv malakaviy ishida ayrim kamchiliklar ham mavjud ekanligi koʻzga tashlanadi, yaʼni:

- baʼzi bir imloviy xatolarga yoʻl qoʻyilgan;
- 13, 19, 36, -betlarda stilistik xatolar mavjud;

Lekin ushbu kamchiliklar tadqiqotning ilmiy qiymatini kamaytirmaydi, shu sababli uni yakunlangan ish deb hisoblash mumkin.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi talablariga toʻliq mos keladi. Malakaviy bitiruv ishini himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Xatirchi pedagogika kolleji oʻqituvchisi: \_\_\_\_\_ **A.Eshmurodov**